

## SHEKSPIR ASARLARIDA SATIRANING O'RNI

**Ibragimova Dilafruz Shukhratovna**

*“Amaliy Ingliz tili” kafedrası  
katta o'qituvchisi,  
FarDU.*

**Muhammedova Inobat Shavkatjon qizi**

*Ingliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi  
FarDU.*

**Izoh:** *Maqolada mashhur yozuvchi Uilyam Shekspirning taniqli asarlari va ularda mohirona tarzda foydalanilgan satiraning o'rni, shuningdek, adabiyotda satira janri haqida nazariy ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *satira, adabiyot, dramaturg, pyesa, spektakl, istehzo, janr, fojia, jamiyat, komediya, na'muna, sonet.*

**Аннотация:** *В статье даются теоретические сведения о знаменитых произведениях писателя Уильяма Шекспира и умело использованном в них понятии сатиры, а также о жанре сатиры в литературе.*

**Ключевые слова:** *сатира, литература, драматург, драма, зрелище, ирония, жанр, трагедия, общество.*

**Abstract:** *The article provides theoretical information about the famous works of the great writer William Shakespeare and the genre of satire, as well as the skillfully usage of satire in literature*

**Key words:** *satire, literature, dramaturge, drama, spectacle, irony, genre, tragedy, society.*

Uilyam Shekspir har doim ingliz adabiyotining eng mashhur va ta'sirli uslubda qalam tebratuvchi adiblaridan bo'lgan. Umrining faqatgina chorak asri davomida yozuvchi sifatida faol bo'lgan Uilyam o'ttiz sakkizta pyesa, bir yuz ellik to'rtta sonet va ikkita epik she'rlar yozgan, va ushbu adabiyot na'munalari ingliz tilini shu darajada yorqin aks ettirgan va qayta kashf etganki, uning asarlari butun dunyoda o'rganilishi kerak bo'lgan adabiyotlar sifatida e'tirof etiladi. Uilyam Shekspir barcha davrlarning eng buyuk dramaturgi va ingliz tili tarixidagi eng ta'sirli yozuvchi hisoblanadi. U hanuzgacha barcha inglizzabonlar foydalanayotgan yuzlab so'z va iboralarni yaratdi. Uning adabiyotga ta'siri shunchalik kattaki, uning har bir asari ulkan e'tirofga loyiq.

Adabiyotda satira haqida ma'lumot beradigan bo'lsak, satira bu keng tarqalgan janrlardan biri bo'lib, ayrim shaxslar yoki guruhlarining ahmoqligi va kamchiliklarini tanqid qilish uchun hazil va istehzodan foydalanishdir. Bizgacha tarix, siyosat va siyosat namoyondalari to'g'risiga yozilgan satirik asar na'munalari juda muvaffaqiyatli bo'lgan. Ammo satira o'zi qaratilgan mavzu yoki shaxsni shunchaki masxara qilish uchun mo'ljallanmagan; yozuvchining asarda satira qo'llashdan asosiy maqsadi asarda satirik nishonga olingan shaxslarni o'z yo'llarini o'zgartirishga ilhomlantirishdir. Barchamizga ma'lum Jonatan Sviftning "Guliverning

sayohatlari", Jorj Oruellning "Molxona", "1984" Lyuis Kerrollning "Alisa mo'jizalar mamlakatida" asarlaridan ham satiraning ajoyib na'munalarini topishimiz mumkin. Bu o'rinda biz Shekspirning "Romeo va Juletta" asaridagi satira haqida to'xtalishimiz zarur. Garchi hozir hamma "Romeo va Juletta"ni fojiali sevgi hikoyasi sifatida qabul qilsa-da, lekin aslida bu asar katta komediya bo'lib, o'quvchilar tomonidan juda jiddiy qabul qilingan, chindan Romeo va Julettaning haddan tashqari bo'rttirilgan harakatlarini bir qarashda eng buyuk drama sifatida qabul qilinadi. Asarda qahramonlar tasviri murakkab ko'rinishga ega. Romeoning fe'l-atvori haqiqatan ham aslan tushunish uchun juda murakkab. Birinchi sahnada Romeo Rozalinga oshiq bo'ladi. Shu qadar tushkunlikka tushadi-ki, hayotini usiz davom ettirishini tasavvur qilolmaydi. Oradan o'n ikki soat o'tgach, u Julettani sevib qoladi.

Romeo (xizmatkorga): Qara, anov yigit bilan aylanib turgan,

Xusni ko'zni qamashtirgan go'zal honim kim? [4;57]

Biror kishining bunday tezlikda sevib qolishi esa albatta haqiqatga zid. O'sha oqshom Romeo Julettaning uyiga ergashdi. U yerda ular turmush qurishga qaror qilishdi. Bularning barchasi yigirma to'rt soat ichida sodir bo'ladi. Keyin Romeo Julettaning amakivachchasini o'ldiradi va uydan haydab yuboriladi. Voqealar rivoji davomida Juletta Romeo bilan birga bo'lish, qochish uchun o'z o'limini soxtalashtirishga qaror qiladi. So'ngida esa, ikkalasi ham ajralishdan ko'ra o'z joniga qasd qilishadi. "Romeo va Juletta" — haqiqiy va chin muhabbat g'oyasini masxara qiluvchi satira. Shekspir yuqoridagi fikrni mustahkamlamoqchi edi, bunga esa xuddi shu davrda ijod qilgan Kristofer Marlo ismli dramaturgning "Karfagen malikasi Dido" nomli asari sabab bo'lgan. Asar Dido ismli ayol haqida edi, asar davomida Dido Cupid ismli qahramonning afsuniga tushib qoladi va darhol Aeneas ismli odamni sevib qoladi. Aeneas ketadi va Dido umidsizlikda o'zini o'ldiradi. "Romeo va Juletta" bir qarashda sevgi g'oyasini aniq masxara qilmoqda, chunki Shekspir Marlioni yomon ko'rardi va o'z spektakllaridan birida dushmanini masxara qilish ajoyib bo'ladi degan maqsadda "Romeo va Juletta"ni yozadi, ammo tomoshabinlar Shekspirning eng hurmatli asarini jiddiy qabul qildilar va bu fojia janridagi asarga aylandi. "Romeo va Juletta" tarixan noto'g'ri tushunilgan sevgi satirasidir.

Shekspir pyesalarida satira ko'pincha yuqori tabaqalarning haddan tashqari poraxo'riligini tanqid qilish, shuningdek, jamiyat normalari va an'alariga qarshi chiqish uchun ishlatiladi. Masalan, Shekspir "O'n ikkinchi kecha" asarida grafinya Oliviya va uning xonadonidagi dag'allik va ikkiyuzlamachilikni tasvirlash orqali jamiyatdagi chirkin illatlar ko'rsatib berilgan. "O'n ikkinchi kecha" — Shekspir satirik asarlarining ajoyib na'munasi.

Viola: ... maqsadim bitta -

Gertsogga xizmatkor bo'lib yollanish.

Sen meni gertsogga bichilgan bir qul,

Xaram og'asi deb ata, Xullas,

Bo'z bola deb ata. Mukofoting naqd,

Sendan ayamasman saxovatimni! [5;381]

Ushbu asarda bir nechta satirik qahramonlar mavjud bo'lib, ulardan biri — saroyda Gertsog xizmatiga kirish uchun erkak qiyofasini olgan yosh ayol Viola. Asardagi voqealar rivojidan biroz chetlashdan holda, Shekspir satira qo'llash orqali o'quvchiga yetkazmoqchi

bo'lgan fikr bilan tanishamiz. Asarda adib boylik va imtiyoz, ijtimoiy mavqe hamma narsa bo'lgan jamiyat va undagi sinfiy tuzum ustidan kulgan. Asarda Violaning erkak qiyofasida erkin harakatlanishi, dadil nutqi ayol ko'rinishida esa har tomonlama cheklangan erkinliklari jamiyatda chuqur ildiz otib ketgan ikkiyuzlamachilikdan darak beradi. Adib esa o'ziga yuklatilgan, so'z kuchi bilan asrlar mobaynida ildiz otib, butun millat onggiga singib ulgurgan ushbu xislatlar tomiriga bolta urishdek ma'suliyatli ishni uddasidan chiqdi desak mubolag'a bo'lmaydi.

"Shakespeare was not of an age, but for all time" [1;1] (Shekspir ma'lum bir davrninggina emas, balki har qaysi zamonning buyuk ijodkoridir.) - deydi Ben Jonson. Shekspir oz vaqt mobaynida ijod qilgan bo'lsada, bir qancha janrlarda asarlar yozdi, o'zidan salmoqli adabiy meros qoldirdi. Shekspirning satiralari o'z davrida jamiyat muammolari uchun ko'zgu vazifasini bajaribgina qolmay, bugungi kunda ham o'zining qimmatli mavqeyini yo'qotmay kelmoqda. Shekspirning satirasi nafaqat o'z davrining ko'zgusi, balki inson tabiatining abadiy sharhidir. Asardagi hech bir mavzu o'z dolzarbligini yo'qotmagani mutolaa davomida o'quvchiga ma'lum bo'lib boradi, bundan adib o'z asarlari uchun mavzuni naqadar ustalik bilan tanlaganini bilishimiz mumkin. Ushbu buyuk asarlar nafaqat ingliz balki butun dunyo adabiyoti durdonalari sifatida hanuz o'rganilmoqda. Zero, adabiyot adibni abadiyatga muhrladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, zamon va makonlar o'zgarishiga qaramay, Shekspir asarlari kitobxonlar uchun ajoyib adabiyot; til o'rganuvchilari uchun mukammal qo'llanma; qolaversa, adabiyot tarixiga go'zal sayohat vazifasini o'tamoqda. Shekspir o'zining satirik tasvirlarida zukkolik, kinoya va o'tkir mushohadani mohirona uyg'unlashtirgani uning asarlariga chuqur ma'no qo'shadi. Asar o'quvchini qiziqtiribgina qolmay balki o'ylantirib ham qo'yadi. Umuman olganda, Shekspir asarlarida satiraning o'rni juda muhim. Biz adabiy daho bo'lmish Shekspirning bardavom merosini ushbu go'zal janrsiz tasavvur qilolmagan bo'lardik.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ben Jonson (1623), Sevimli adibim, janob Uilyam Shekspir xotirasiga. 61 West Superior Street, Chikago, IL 60654
2. Pritchard, Arnold (1979), Yelizaveta davrida Angliyadagi katolik loyalizm, Chapel Hill: Shimoliy Karolina Universitet matbuoti, ISBN 0-8078-1345-1.
3. Ribner, Irving (2005), Shekspir davridagi ingliz tarixi o'yini, London: Routledge, ISBN 0-415-35314-9.
4. Ringler, Uilyam, Jr. (1997), "Shekspir va uning aktyorlari: Qirol Lir haqida ba'zi izohlar", Ogden, Jeyms; Scouten, In Lear In Study from Stage: Tanqidiy insholar, Nyu-Jersi: Fairleigh Dickinson Universiteti matbuoti, ISBN 0-8386-3690-X
5. Sawyer, Robert (2003), Victorian Appropriations of Shakespeare, New Jersey: Fairleigh Dickinson University Press, ISBN 0-8386-3970-4.
6. Uilyam Shekspir (1987), Romeo va Juletta, Toshkent. G'afur G'ulom nomididagi Adabiyot va san'at nashriyoti.

7. Uilyam Shekspir (1981), O'n ikkinchi kecha, Toshkent. G'afur G'ulom nomididagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
8. Uilson, Richard (2004), Sirli Shekspir: Teatrdagi ta'lim, Din va Renesans, Manchester: Manchester universiteti nashri, ISBN 0-7190-7024-4.
9. <http://shakespeare.palomar.edu/default.htm>
10. [www.lib.ru/SHAKESPEARE/shks\\_dictionary.txt](http://www.lib.ru/SHAKESPEARE/shks_dictionary.txt)
11. [www.Wikipedia.com](http://www.Wikipedia.com)